

“Zero Risk” dasturida ishtirok etish tartibi to‘g‘risida NIZOM

I. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mamlakatimizda raqamlashtirish sohasidagi xizmatlar eksportini rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2024-yil 26-fevraldagi PQ–87-son qarori asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, “Zero Risk” dasturida ishtirok etish uchun kelib tushgan arizalarni ko‘rib chiqish tartibini hamda ushbu dastur ishtirokchilarini qo‘llab-quvvatlash hamda ular bilan munosabatlarni tartibga solish mexanizmlarini belgilaydi.

2. Mazkur Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi.

IT-Park – Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki.

IT-Park direksiyasi – “Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki direksiyasi” MChJ.

IT-Park rezidenti - belgilangan tartibda IT-Parkda ro‘yxatdan o‘tkazilgan va Rezidentlarning yagona reyestriga kiritilgan yuridik shaxs;

“Zero Risk” – axborot texnologiyalari (IT) va biznes-jarayonlarni outsorsing (BPO) sohasida IT-Park rezidentlari – investorlar uchun minimal xavf bilan sharoit yaratishga qaratilgan dastur (keyingi o‘rinlarda – Dastur).

BPO (biznes jarayonlari outsorsingi) - dasturiy ta‘minot va IP-telefoniyadan foydalangan holda buyurtmachining biznes jarayonini boshqarish va optimallashtirish uchun mas‘uliyatni o‘z zimmasiga oladigan xizmat.

Arizachi – belgilangan tartibda IT-Park rezidenti sifatida ro‘yxatdan o‘tgan yuridik shaxs.

Ishtirokchi – belgilangan tartibda IT-Park rezidenti sifatida ro‘yxatdan o‘tgan va Dasturga kiritilgan yuridik shaxs.

Rezidentlar yagona reyestri – IT-Park rezidentlari sifatida ro‘yxatdan o‘tgan yuridik shaxslar ro‘yxatini o‘z ichiga olgan ochiq axborot resursi.

Veb-portal – Dasturda ishtirok etish uchun hujjatlarni qabul qilish uchun yaratilgan IT-Park veb-sayti.

Ekspert guruhi – Dasturda ishtirok etish uchun ariza bergan Ishtirokchilarning arizalarini ko‘rib chiqish, shuningdek, ushbu dastur shartlariga rioya etilishini nazorat qilish uchun IT-Park direksiyasi huzurida tashkil etilgan

organ.

Xarajatlarni qoplash – Ishtirokchilarning uchinchi shaxslardan xodimlarni tanlash bo'yicha xizmatlarini sotib olish, Ishtirokchi xodimlari uchun kirish va o'quv treninglarini o'tkazish natijasida amalga oshirilgan xarajatlarni qoplash, shuningdek xodimlarning ish haqining bir qismini qoplash bilan bog'liq harakatlar.

Xizmatlar eksporti – eksport qiluvchi tomonidan O'zbekiston Respublikasi norezidentiga, xizmat ko'rsatilgan joyidan qat'i nazar, IT va BPO sohasida xizmatlarni ko'rsatish.

Eksportga yo'naltirilganlik – xorijiy davlatga IT va BPO xizmatlarini taqdim etishga yo'naltirilganlik holati.

3. Dastur IT va BPO sohasida eksportga yo'naltirilgan faoliyatni amalga oshiruvchi IT-Park rezident kompaniyalari uchun ishlab chiqilgan.

4. Dasturning asosiy maqsadi, ushbu Nizomning **II bo'limida** belgilangan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini amalga oshirish orqali O'zbekiston Respublikasida IT va BPO sohasida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga ko'maklashishdan iboratdir.

5. Dasturda quyidagi talablardan biriga mos keluvchi IT-Park rezidenti maqomiga ega bo'lgan tashkilotlar ishtirok etadi:

umumiy xizmatlar hajmida xizmatlar eksporti ulushi mahalliy bozor uchun ko'rsatilgan xizmatlar hajmiga nisbatan yuqori bo'lgan tashkilotlar;

amalda 500 ming AQSh dollari va undan yuqori bo'lgan ekvivalentdagi eksport shartnomasiga ega bo'lgan tashkilotlar;

yillik aylanmasi miqdori 1 million AQSh dollari ekvivalenti va undan yuqori bo'lgan xorijiy kompaniya ta'sisshiligidagi tashkil etilgan yangi tashkilotlar.

Bunda, Dasturda ishtirok etish uchun IT-Park rezidentlari quyidagilarga **majburdirlar**:

IT-Park direksiyasi bilan tuzilgan IT-Park rezidentining faoliyat shartlari to'g'risidagi shartnoma shartlarini bajarib borish;

“Zero Risk” dasturi ishtirokchilarining faoliyati shartlari to'g'risidagi shartnoma (oferta) shartlariga amal qilish;

O'zbekiston Respublikasi viloyatlari (Toshkent shahri bundan mustasno) va Qoraqalpog'iston Respublikasida joylashgan ko'chmas mulk obyektlari negizida o'z faoliyatini tashkil etish va yuridik shaxsni ro'yxatdan o'tkazish;

mazkur Nizom talablariga rioya qilish.

II. Dastur Ishtirokchilarini qo'llab-quvvatlash mexanizmlari

6. Dastur doirasida tanlab olingan ishtirokchilarga quyidagi imtiyoz va preferensiyalar taqdim etiladi:

6.1. IT-Park direksiyasining tavsiyasiga asosan bo'sh turgan davlat ko'chmas mulk obyektlari, shuningdek, Raqamli texnologiyalar vazirligi tizimidagi

tashkilotlarning hamda IT-Park direksiyasi filiallarining davlat mulki hisoblangan bo'sh turgan binolari va bino qismlari **tekin foydalanish huquqi asosida bir yilgacha muddatga beriladi.**

Bunda, IT-Park direksiyasining tavsiyanomasi Dasturda ishtirok etish uchun ariza bergan Ishtirokchilarning arizalarini ko'rib chiqish natijalari bo'yicha qabul qilingan Ekspert guruhining xulosasi asosida tayyorlanadi.

6.2. IT-Park direksiyasi tomonidan xarid qilingan yangi kompyuter, boshqa texnika va jihozlar bir yilgacha muddatga tekin foydalanish huquqi asosida, kelgusida **uch oy muddatda foizsiz bo'lib-bo'lib qiymatini to'lash (sotib olish) sharti** bilan topshiriladi.

6.3. Ish haqi xarajatlari bir yil ichida mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchi xodimlar soniga mutanosib ravishda **15 foizgacha** miqdorda qoplanadi.

Dastur Ishtirokchisining shtatdagi xodimlari sonidan kelib chiqib, ish haqi xarajatlari quyidagi miqdorda qoplanadi:

20 dan 50 tagacha xodimlar soniga – 5 foiz;

50 dan 75 gacha xodimlar soniga – 10 foiz;

75 yoki undan ortiq xodimlar soniga – 15 foiz.

6.4. Bir yil davomida inson resurslarini rivojlantirish bilan bog'liq xarajatlar qoplanadi, **xususan:**

ishlab chiqarish va boshqaruv xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish (shu jumladan chet ellik mutaxassislarni jalb qilgan holda) bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar - bunday xarajatlarning **50 foizigacha**, lekin bazaviy hisoblash miqdorining **200 barobaridan ko'p bo'lmagan miqdorda;**

ishga joylashish uchun malakali mutaxassislarni tanlash bo'yicha xizmatlar uchun (mutaxassislar soniga mutanosib ravishda) – bunday xarajatlarning **50 foizigacha**, lekin bazaviy hisoblash miqdorining **20 barobaridan ko'p bo'lmagan miqdorda.**

7. Mazkur Nizomning 6.1 va 6.2.-bandlarida ko'rsatilgan mulklarni Dastur ishtirokchisiga o'tkazish hamda 6.3. va 6.4-bandlariga muvofiq, Ishtirokchining xarajatlarini qoplab berish ushbu Nizomning **1-ilovasida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.**

8. Bir turdagi imtiyoz yoki preferensiyadan foydalanish yoki undan voz kechish Ishtirokchining Dasturda nazarda tutilgan boshqa turdagi imtiyoz va preferensiyadan foydalanish huquqini istisno etmaydi.

9. Imtiyoz va preferensiyalar doirasida Ishtirokchining harajatlarini qoplab berish maqsadida amalga oshirilgan to'lovlardan yuzaga keladigan soliqlar Dastur Ishtirokchisi tomonidan amaldagi qonunchilikka muvofiq to'lanadi.

10. Dastur bo'yicha imtiyozlar va preferensiyalar, yangi muddatga uzaytirish huquqisiz, bir martalik taqdim etiladi.

III. Dasturda ishtirok etish uchun ariza berish va arizalarni ko‘rib chiqish tartibi

11. Arizachi Dasturda ishtirok etish uchun veb-portal orqali IT-Park direksiyasiga ushbu Nizomning **2-ilovasidagi** namunaviy shakldagi onlayn ariza yuboradi.

Bunda, Dastur ishtirokchisi maqomini olish uchun veb-portal orqali ariza taqdim etgan Arizachi, ushbu Nizomning **3-ilovasida** keltirilgan ““Zero Risk” dasturi ishtirokchilarining faoliyati shartlari to‘g‘risidagi shartnoma” (oferta) shartlari bilan roziligi (aksept)ni anglatadi.

12. Arizaga **1-ilovada** ko‘rsatilgan hujjatlar ilova qilinadi va taqdim etilgan hujjatlarning to‘g‘riligi uchun arizachi javobgar bo‘ladi.

13. Dasturda ishtirok etish uchun arizalar o‘zbek, rus yoki ingliz tillarida, tasdiqlovchi hujjatlarni **pdf formatida** yoki tahrir qilish cheklangan boshqa formatlarda ilova qilgan holda taqdim etiladi.

14. Arizachi IT-Park direksiyasiga ariza topshirilgan kundan boshlab **3 ish kuni** ichida veb-portal orqali o‘z arizasini qaytarib olishga haqli hisoblanadi.

15. Vakolati bo‘lmagan shaxs tomonidan imzolangan ariza Dasturda ishtirok etish uchun qabul qilinmaydi va vakolatli bo‘lmagan shaxs tomonidan taqdim etilganlik fakti aniqlangan vaqtdan boshlab hisobga olinmaydi va ko‘rib chiqilmaydi.

16. Dastur bo‘yicha arizalarni ko‘rib chiqish uchun IT-Park direksiyasining buyrug‘i asosida eng kamida uchta a‘zodan iborat tarkibda **Ekspert guruhi** tuziladi. Ekspert guruhi tarkibiga boshqa manfaatdor tashkilotlar mutaxassislari, shu jumladan shartnomaviy asosda jalb etilishi mumkin.

17. Ekspert guruhining yig‘ilishlari har oyda kamida bir marta o‘tkaziladi. Ekspert guruhining hulosasi ochiq ovoz berish yo‘li orqali Ekspert guruhining a‘zolari umumiy sonining ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilinadi va Ekspert guruhi bayonnomasi ko‘rinishida rasmiylashtiriladi. Ovozlar teng bo‘lib qolgan taqdirda, raislik qiluvchining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

18. Arizalarni ko‘rib chiqish muddati tegishli ariza kelib tushgan kundan boshlab **30 kalendar kunidan (4-ilova)** oshmasligi lozim.

19. Ekspert guruhining tezkor faoliyatini ovoz berish huquqiga ega bo‘lmagan **mas‘ul kotibi** tashkil etadi

Mas‘ul kotib quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

Dasturda ishtirok etish uchun arizalarni qabul qilish;

ushbu Nizom shartlariga muvofiq hujjatlarni rasmiylashtirishda tegishli ilovalar, xatolar va nomuvofiqliklar mavjudligi yuzasidan arizalarni Ekspert guruhiga kiritishdan oldin ko‘rib chiqish;

ariza kelib tushgan kundan boshlab bir ish kuni ichida ushbu arizani Ekspert

guruhi a'zolariga ko'rib chiqish uchun yuborish;

Ekspert guruhi yig'ilishlarini onlayn va oflayn rejimda tashkil etish, shuningdek majlis bayonnomalari loyihalarini tayyorlash;

taqdim etilgan hujjatlar bo'yicha savollar mavjud bo'lgan taqdirda, arizachilar bilan onlayn va oflayn rejimda uchrashuvlar tashkil qilish.

20. Ekspert guruhi kotibi ariza olingan kundan boshlab **bir ish kuni** ichida **2-ilovada** keltirilgan namunaviy shaklga ko'ra arizaning barcha majburiy bandlari to'ldirilganligini va ushbu Nizomga muvofiq talab qilinadigan hujjatlar mavjudligini tekshiradi.

21. Mazkur Nizomda nazarda tutilgan hujjatlar arizaga ilova qilinmagan taqdirda, shuningdek, **2-ilovada** keltirilgan namunaviy shakl bo'yicha ma'lumotlar to'liq to'ldirilmagan yoki noto'g'ri to'ldirilmagan taqdirda, Ekspert guruhi kotibi bir ish kuni ichida taqdim etilgan ma'lumotlarni to'g'irlash va to'ldirish uchun Arizachining ko'rsatilgan elektron pochta manziliga bildirishnoma yuboriladi.

22. Mazkur Nizomning **2-ilovasida** keltirilgan namunaviy shaklni to'ldirish bo'yicha kamchiliklar aniqlanmagan hamda **1-ilovaga** muvofiq zarur hujjatlar mavjud bo'lgan taqdirda, mas'ul kotib bir ish kuni davomida Ekspert guruhiga ariza va barcha hujjatlarni taqdim etadi.

23. Arizachining ushbu Nizomda belgilangan shartlarga muvofiqligini tekshirish hamda imtiyozlar va preferensiyalar berish bo'yicha hujjatlarni ko'rib chiqish Ekspert guruhi tomonidan amalga oshiriladi.

24. Dasturda ishtirok etish bo'yicha taqdim etilgan arizalar Ekspert guruhi tomonidan **15 kalendar kun** ichida ko'rib chiqiladi va Arizachiga Dastur ishtirokchisi maqomini berish yoki arizani rad etish to'g'risida xulosa tayyorlanadi.

25. Ekspert guruhi quyidagi holatlarda rad etish to'g'risida qaror qabul qiladi:

ushbu Qoidalarining **5-bandidagi** majburiy shartlar bajarilmasa;

Arizachi tomonidan ushbu Nizomning 1-ilovasida keltirilgan hujjatlarni rasmiylashtirish qoidalari buzilganda, ushbu hujjatlar taqdim etilmaganda yoki to'liq taqdim etmaganda;

noto'g'ri ma'lumotlar taqdim etilgan taqdirda.

26. Ekspert guruhining xulosasi asosida IT-Park direksiyasi tomonidan Arizachiga Dastur ishtirokchisi maqomini berish yoki arizani rad etish to'g'risida tegishli buyruq rasmiylashtiriladi.

27. IT-Park direksiyasining buyrug'i asosida **bir ish kuni davomida** Arizachining elektron manziliga qabul qilingan qaror yuzasidan bildirishnoma yuboriladi.

Taqdim etilgan arizasi va ilova qilingan hujjatlarini ko'rib chiqish natijalariga ko'ra ijobiy xulosa qabul qilingan Arizachiga Dastur ishtirokchisi maqomi beriladi.

28. Dasturda ishtirok etish uchun taqdim etilgan ariza rad etilgan taqdirda, Arizachi rad etish uchun asos bo'lgan kamchiliklarni bartaraf etgan holda qayta ariza taqdim etishga haqli.

29. Dasturda ishtirok etish uchun taqdim etilgan arizalarni ko'rib chiqish bepul asosda amalga oshiriladi.

IV. Dastur ishtirokchisi maqomini bekor qilish va xarajatlarni qoplashni rad etish tartibi

30. Ishtirokchining Dastur shartlariga muvofiqligini tekshirish IT-Park direksiyasining maxsus veb-portali (www.my.it-park.uz) orqali Ishtirokchi – IT-Park rezidentining har chorakdagi o'z faoliyati to'g'risidagi belgilangan shakl va muddatlardagi hisoboti asosida Ekspert guruhi tomonidan Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 15-iyuldagi 589-son qarori bilan tasdiqlangan “Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki faoliyatini tashkil etish tartibi to'g'risida” Nizom talablariga muvofiq amalga oshiriladi.

31. Ishtirokchining choraklik hisoboti IT-Park direksiyasi tomonidan ko'rib chiqiladi va Ekspert guruhi kotibiga Ekspert guruhi muhokamasiga kiritish uchun taqdim etiladi.

32. Ishtirokchining choraklik hisobotlarini ko'rib chiqish natijalari bo'yicha Ekspert guruhi Ishtirokchi faoliyati Dastur shartlariga nomuvofiqligi aniqlangan taqdirda Dastur ishtirokchisi maqomini bekor qilish to'g'risida xulosa qabul qilinadi.

33. Ekspert guruhi quyidagi holatlar aniqlangan taqdirda Dastur ishtirokchisi maqomini bir tomonlama bekor qilishga haqli:

IT-Park direksiyasi bilan tuzilgan IT-Park rezidentining faoliyat shartlari to'g'risidagi shartnoma yoki ““Zero Risk” dasturi ishtirokchilarining faoliyati shartlari to'g'risidagi shartnoma” (oferta) talablari buzilganligi aniqlansa;

IT va BPO sohasida eksport xizmatlarini ko'rsatishdan olingan daromadlar hisobot choragi yakunlari bo'yicha umumiy daromadning 51 foizidan oshmasa;

Ishtirokchining haqiqiy faoliyati bilan IT-Park rezidentlari tomonidan amalga oshirilishiga ruxsat etilgan faoliyat turlari ro'yxatida ko'rsatilgan faoliyat turlari o'rtasidagi nomuvofiqlik aniqlanganda;

Ishtirokchi nochor (bankrot) deb tan olinganda;

Ishtirokchi IT-Park rezidenti maqomidan ixtiyoriy ravishda voz kechganda; o'z faoliyati, soliq va statistik hisobotlar, biznes-reja to'g'risidagi ma'lumotlarni, shuningdek, auditorlik hisoboti va auditorlik xulosasini belgilangan muddatlarda taqdim etmaslik yoxud ularda noto'g'ri ma'lumotlar taqdim etilganda;

IT-Park rezidentining faoliyat shartlari to'g'risidagi shartnomada belgilangan oylik ajratmalarni to'lamaslik;

yuridik shaxsni qayta tashkil etish yoki tugatish holatlarida.

34. IT-Park direksiyasi Dastur ishtirokchisi maqomini bekor qilish to'g'risidagi Ekspert guruhining xulosasi asosida tegishli buyruq rasmiylashtiradi va Ishtirokchining elektron manziliga tegishli bildirishnomani yuboradi.

V. Yakuniy qoidalar

35. Mazkur Nizom talablarini buzganlikda aybdor shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladilar.

36. Mazkur Nizom talablariga rioya etilishini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi tomonidan amalga oshiriladi.

**“Zero Risk” dasturida ishtirok etish
to‘g‘risidagi Nizomga
1-ILOVA**

**“Zero Risk” dasturi doirasida imtiyoz va preferensiyalardan foydalanish
shartlari**

1. Bo‘sh turgan ko‘chmas mulk obyektlari, bo‘sh turgan binolar va bino qismlaridan tekin foydalanish huquqi.

1.1 Dastur ishtirokchisi maqomini olish, shuningdek, bo‘sh turgan ko‘chmas mulk obyektlari, bo‘sh turgan binolar va bino qismlari (keyingi o‘rinlarda – Obyekt deb yuritiladi)dan tekin foydalanish huquqiga ega bo‘lish, shu jumladan IT-Park direksiyasining tavsiyanomasini olish uchun Arizachi (Ishtirokchi) **quyidagi hujjatlarni ilova qilgan holda** belgilangan namunaviy shakldagi ariza (**2-ilova**)ni Ekspert guruhiga taqdim etadi:

a) IT-Park rezidenti maqomini tasdiqlovchi guvohnoma nusxasi;

b) o‘tgan chorak uchun soliq va statistik hisobotlar, qiymati 500 ming AQSh dollari va undan ortiq ekvivalentdagi amaldagi eksport shartnomasining nusxalari, belgilangan talablarga muvofiqligini aniqlash maqsadida Arizachi ta‘sischisining moliyaviy faoliyati to‘g‘risidagi ma‘lumotlar;

c) Arizachining ta‘sis hujjatlarining nusxasi.

1.2. Ishtirokchiga o‘z faoliyatini amalga oshirish uchun mavjud bo‘lgan obyektlarni (to‘rttadan ko‘p bo‘lmagan) bepul foydalanish uchun tanlash imkoniyati beriladi. Dastur ishtirokchisi har birida kamida **20 ta stasionar ish joyi** bo‘lishi sharti bilan turli hududlarda faoliyat olib borish uchun bir nechta obyektlarni tanlab olishga haqli.

O‘zbekiston Respublikasi 2007-yil 29-martdagi 0224-0-son SanQvaNga muvofiq, obyektning faoliyat yuritish uchun berilgan maydoni bitta stasionar ish joyi uchun 4,5 kv.metrdan 6 kv.metr gacha belgilanadi.

1.3. Ishtirokchi IT-Park direksiyasi hisobida bo‘lgan obyektlardan tekin foydalanish bo‘yicha IT-Park direksiyasi bilan tekin foydalanish shartnomasini (**5-ilova**) tuzadi.

Davlat mulki bo‘lgan boshqa obyektlar uchun tekin foydalanishga oid shartnomalar IT-Park direksiyasi tavsiyanomasi asosida O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda rasmiylashtiriladi.

1.4. Bir yil muddat tugagandan so‘ng Dastur ishtirokchisi tekin foydalanish huquqi asosida berilgan obyektlar yuzasidan «E-auksion» elektron savdo platformasida bir metr kvadrat maydon uchun tegishli hudud bo‘yicha shakllangan o‘rtacha ijara haqi miqdorida to‘g‘ridan-to‘g‘ri shartnoma tuzish bo‘yicha imtiyozli

huquqqa ega bo'ladi.

Ishtirokchi obyekt(lar)dan foydalanish muddati tugashidan 30 kalendar kun oldin obyektning balansda saqlovchisini yuqorida ko'rsatilgan shartlar bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri ijara shartnomasini tuzish uchun imtiyozli huquqdan foydalanish niyati to'g'risida yozma ravishda xabardor qilish majburiyatini oladi.

1.5. Dastur ishtirokchisi maqomi bekor qilingan yoki uning amal qilish muddati tugagunga qadar Ishtirokchi Dasturda ishtirok etishdan bosh tortgan taqdirda 10 ish kuni ichida egallab turgan obyekt(lar)ni bo'shatish majburiyatini oladi.

Obyekt(lar)dan belgilangan maqsadlarga zid ravishda foydalanilganda va unga zarar yetkazilgan taqdirda, Ishtirokchi obyekt(lar)ni tiklash yoki tomonlarning kelishuviga binoan yetkazilgan zararga mutanosib ravishda pul mablag'larini obyektning balansda saqlovchisiga to'lab berish majburiyatini oladi.

2. Yangi kompyuter, boshqa texnika va jihozlardan, keyinchalik foizsiz bo'lib to'lash (xarid qilish) sharti bilan bir yilgacha muddatga tekin foydalanish huquqi.

2.1. Dastur ishtirokchisi maqomini olish, shuningdek, IT-Park direksiyasi tomonidan xarid qilingan yangi kompyuter, boshqa texnika va jihozlardan, keyinchalik **3 oylik davrda foizsiz bo'lib to'lash** (xarid qilish) sharti bilan bir yilgacha muddatga tekin foydalanish huquqidan foydalanish uchun Arizachi (Ishtirokchi) Ekspert guruhiga belgilangan tartibda quyidagi hujjatlarni ilova qilgan holda belgilangan namunaviy shaklda ariza (**2-ilova**) yuboradi:

a) o'tgan chorak uchun soliq va statistik hisobotlar, qiymati 500 ming AQSh dollari va undan ortiq ekvivalentdagi amaldagi eksport shartnomasining nusxalari, belgilangan talablarga muvofiqligini aniqlash maqsadida Ishtirokchi ta'sisчисining moliyaviy faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar;

b) IT-Park rezidenti maqomini tasdiqlovchi guvohnoma nusxasi;

c) ishtirokchining ta'sis hujjatlarining nusxasi;

d) ishtirokchi xodimlarining sonini tasdiqlovchi hujjatlar nusxalari;

e) xodimlar faoliyatini tashkil etish uchun zarur bo'lgan yangi kompyuter, boshqa texnika va jihozlarning dastlabki ro'yxati.

2.2. Ishtirokchi o'z faoliyatini yo'lga qo'yishi uchun IT-Park direksiyasi tomonidan bir yildan ortiq bo'lmagan muddatga bepul foydalanish shartnomasi va topshirish va qabul qilish dalolatnomasiga asosan yangi kompyuter, boshqa texnika va jihozlar topshiriladi.

2.3. Yangi kompyuter, boshqa texnika va jihozlar IT-Park direksiyasi tomonidan qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda xarid qilinadi va Ekspert guruhi xulosasi asosida tekin foydalanish shartnomasi (**6-ilova**)ga muvofiq Ishtirokchiga o'tkazib beriladi.

2.4. Ishtirokchi yangi kompyuter, boshqa texnika va jihozlardan tekin foydalanish muddati tugashiga 30 kalendar kun qolganda foydalanilgan moddiy boyliklar qiymatini **3 oyda bo‘lib to‘lash sharti bilan** xarid qilish bo‘yicha oldi-sotdi shartnomasi tuzish xohishi to‘g‘risida Ekspert guruhini xabardor qilish majburiyatini oladi.

Foydalanilgan moddiy boyliklarni xarid qilish bo‘yicha shartnoma qiymati ushbu moddiy boyliklarni dastlab xarid qilish uchun sarflangan mablag‘lar doirasida belgilanadi.

2.5. Dastur ishtirokchisi maqomi bekor qilingan taqdirda, Ishtirokchi 10 ish kuni ichida tekin foydalanishga topshirilgan moddiy boyliklarni IT-Park direksiyasiga topshirish va qabul qilish dalolatnomasi asosida qaytarish majburiyatini oladi.

Tekin foydalanilgan moddiy boyliklarga zarar yetkazilgan yoki yo‘qotilgan taqdirda, Ishtirokchi tomonlarning kelishuviga binoan foydalanilgan moddiy boyliklar qiymatiga mutanosib ravishda IT-Park direksiyasiga tovon to‘lash majburiyatini oladi.

3. Inson resurslarini rivojlantirish yo‘nalishida bir yil davomida Ishtirokchining xarajatlarini qoplab berish.

3.1. Ekspert guruhining xulosasi asosida Ishtirokchining bir yil davomidagi quyidagi harajatlari qoplab beriladi:

a) ishlab chiqarish hamda boshqaruv xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish (shu jumladan, xorijiy mutaxassislarni jalb qilish orqali) bilan bog‘liq xarajatlarning 50 foizgacha, lekin bazaviy hisoblash miqdorining 200 barobaridan ko‘p bo‘lmagan qismi;

b) ishga qabul qilish uchun malakali mutaxassislarni aniqlash bo‘yicha xizmatlar bilan bog‘liq xarajatlarning (mutaxassislar soniga mos ravishda) 50 foizgacha, biroq bazaviy hisoblash miqdorining 20 barobaridan ko‘p bo‘lmagan qismi.

3.2. Ishlab chiqarish hamda boshqaruv xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish bilan bog‘liq xarajatlarni qoplash uchun Ishtirokchi Dasturda ishtirokchi sifatida tasdiqlangan sanadan 12 oylik muddat o‘tgach **quyidagi hujjatlar ilova qilingan holda** belgilangan namunaviy shakldagi ariza (**2-ilova**)ni Ekspert guruhiga ko‘rib chiqish uchun taqdim etadi:

a) IT-Park rezidenti maqomini tasdiqlovchi guvohnoma nusxasi;

b) shartnomalar, qayta tayyorlash va malaka oshirish xizmatlarini ko‘rsatish to‘g‘risidagi dalolatnomalar va tuzilgan shartnomalar bo‘yicha to‘lovlar to‘liq to‘langanligini tasdiqlovchi hujjatlar nusxalari;

v) qayta tayyorlash va malakasini oshirish xizmatlarini ko‘rsatish huquqini tasdiqlovchi guvoxnoma, lisenziya va boshqa ruxsat beruvchi hujjatlar nusxalari;

d) Dasturda ishtirok etish davrida ishga qabul qilingan O‘zbekiston

Respublikasi fuqarolari bilan tuzilgan amaldagi mehnat shartnomalarining nusxalari (20 tadan kam bo'lmagan miqdorda).

3.3. Ishga qabul qilish uchun malakali mutaxassislarni aniqlash bo'yicha xizmatlar bilan bog'liq xarajatlarni qoplash uchun Ishtirokchi Dasturda ishtirokchi sifatida tasdiqlangan sanadan 12 oylik muddat o'tgach **quyidagi hujjatlar ilova qilingan holda** belgilangan namunaviy shakldagi ariza (**2-ilova**)ni Ekspert guruhiga ko'rib chiqish uchun taqdim etadi:

a) IT-Park rezidenti maqomini tasdiqlovchi guvohnoma nusxasi;

b) HR agentliklar va mutaxassis (rekruter)lar bilan tuzilgan shartnomalar, xizmatlarni ko'rsatish to'g'risidagi dalolatnomalar va tuzilgan shartnomalar bo'yicha to'lovlar to'liq to'langanligini tasdiqlovchi hujjatlar nusxalari;

c) ishga qabul qilish uchun malakali mutaxassislarni aniqlash bo'yicha xizmatlarni ko'rsatish huquqini tasdiqlovchi guvoxnoma, lisenziya va boshqa ruxsat beruvchi hujjatlar nusxalari;

3.4. Yuqoridagi xarajatlarni qoplab berish IT-Park direksiyasi tomonidan bir martalik to'lov shaklida amalga oshiriladi.

4. Ishtirokchining xodimlariga to'lanadigan oylik ish haqi xarajatlari bir yil ichida mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchi xodimlari soniga mutanosib ravishda 15 foizgacha miqdorda qoplab berish.

4.1. Ishtirokchining xodimlariga to'lanadigan oylik ish haqi xarajatlari qoplab berilishi uchun Ishtirokchi Ekspert guruhiga ko'rib chiqish uchun **quyidagi hujjatlarni** belgilangan shakldagi arizaga ilova qilgan holda taqdim etadi:

a) IT-Park rezidenti maqomini tasdiqlovchi guvohnoma nusxasi;

b) Dastur ishtirokchisi maqomi berilgan sanadan boshlab dastlabki 9 oy davomida kamida 20 nafar xodim bilan tuzilgan amaldagi mehnat shartnomalarining nusxalari;

Bunda, Ishtirokchi xodimlari – O'zbekiston Respublikasi fuqarolari soni Dasturda ishtirokchisi maqomi berilgan sanadan boshlab 12 oylik muddat tugamagunga qadar kamaymasligi lozim. Dasturda ishtirok etish boshlanganidan keyin 9 va 12 oylik muddatlarda Ekspert guruhiga xodimlar soni to'g'risidagi ma'lumotnoma taqdim etiladi;

c) Ishtirokchi xodimining oylik daromadi O'zbekiston Respublikasida belgilangan mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 2 barobaridan oshishini tasdiqlovchi ma'lumotnoma;

*Bunda, Ishtirokchining xodimlariga to'lanadigan ish haqi xarajatlarini qoplab berishda xodim mehnatiga haq to'lashning eng kam miqdorining 120 barobaridan oshmagan qismi hisobga olinadi. **Istisno tariqasida**, IT-Park direksiyasining moliyaviy imkoniyatlaridan, shuningdek, Ishtirokchining IT va BPO sohasida xizmatlar eksportida ulushidan kelib chiqqan holda, Ekspert guruhi hulosasi asosida ish haqi xarajatlarini qoplab berish eng ko'p miqdori qayta ko'rib*

chiqilishi mumkin.

4.2. Ishtirokchi xodimlariga to'lanadigan ish haqi xarajatlarini qoplash 100 nafargacha xodimlar uchun amalga oshirilishi mumkin. Istisno tariqasida, IT-Park direksiyasining moliyaviy imkoniyatlaridan, shuningdek, Ishtirokchining IT va BPO sohasida xizmatlar eksportida ulushidan kelib chiqqan holda, Ekspert guruhi hulosasi asosida ish haqi xarajatlarini qoplab beriladigan Ishtirokchi xodimlarining eng ko'p miqdori qayta ko'rib chiqilishi mumkin.

4.3. Ishtirokchi Ekspert guruhiga xodimlarining mehnatiga haq to'lash bilan bog'liq tasdiqlangan soliq hisobotlarini **my.soliq.uz** tizimidagi shaxsiy kabinetidan olingan ma'lumotlar asosida taqdim etishi shart.

4.4. Ishtirokchi xodimlariga to'lanadigan ish haqi xarajatlarini qoplash Dastur ishtirokchisi maqomi berilgan sanadan 12 oylik muddat yakuniga yetgandan so'ng yuqoridagi hujjatlar ilova qilingan holda Ishtirokchining arizasi asosida bir martalik to'lov shaklida amalga oshiriladi.

**“Zero Risk” dasturida ishtirok etish
to‘g‘risidagi Nizomga
2-ILOVA**

**“Zero Risk” dasturida ishtirok etish uchun kiritiladigan arizaning namunaviy
shakli**

Korxonona nomi va shakli:

Korxononaning ro‘yxatga olish raqami (agar mavjud bo‘lsa):

Korxononaning tashkil etilgan sanasi:

Korxononaning yuridik manzili:

Davlat, shahar:

Pochta indeksi:

Bog‘lanish uchun ma‘lumotlar:

F.I.Sh.:

Lavozim:

Email:

Tel:

Kompaniyaning qisqacha tavsifi: (korxonona xizmatlari, tajribasi va ixtisosligi tavsifi)

Xodimlar soni: (amalda)

Korxononaning yillik daromadi:

Korxononaning ustav kapitali:

Ta‘sischi(lar) haqida ma‘lumot: (nomi, ro‘yhatga olingan mamlakat nomi, yillik aylanmasi va hokazo)

O‘tgan davrdagi xalqaro kengayish: (xorijiy mamlakatlardagi mavjud xalqaro ofislar yoki filiallar haqida ma‘lumot)

Kutilayotgan dastlabki investisiyalar:

Ishga jalb qilinishi kutilayotgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining rejalashtirilgan soni:

Men, [FISH], ushbu arizada keltirilgan ma‘lumotlar to‘g‘ri va to‘liq ekanligini ma‘lum qilaman. Men noto‘g‘ri ma‘lumotlarni taqdim etgan taqdirda, “Zero Risk” dasturida ishtirok etish huquqidan mahrum bo‘lishim mumkinligini tushunaman.

Imzo: _____

Sana: _____

**“Zero Risk” dasturida ishtirok etish
to‘g‘risidagi Nizomga
3-ILOVA**

**“Zero Risk” dasturi ishtirokchilarining faoliyati shartlari to‘g‘risidagi
shartnoma (oferta)
SHAKLI**

Keyingi o‘rinlarda “Direksiya” deb ataluvchi “Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki direksiyasi” MChJ nomidan Ustav asosida ish yurituvchi bosh direktor Ibragimov F.Z., bir tomondan, keying o‘rinlarda “Ishtirokchi” deb ataluvchi IT-Park rezidenti ikkinchi tomondan, birgalikda, “Tomonlar” deb ataluvchilar quyidagilar to‘g‘risida ushbu shartnomani tuzdilar.

1-bob. Asosiy tushunchalar

1.1. Ushbu Shartnomada quyidagi terminlar va tushunchalar ishlatiladi:

IT-Park – Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologik parki.

IT-Park direksiyasi – “Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnologiyalari parki direksiyasi” MChJ (**keyingi o‘rinlarda – Direksiya**).

IT-Park rezidenti - belgilangan tartibda IT-Park da ro‘yxatdan o‘tkazilgan va Rezidentlarning yagona reyestriga kiritilgan yuridik shaxs;

“Zero Risk” – axborot texnologiyalari (IT) va biznes-jarayonlarni outsorsing (BPO) sohasida IT-Park rezidentlari – investorlar uchun minimal xavf bilan sharoit yaratishga qaratilgan dastur (**keyingi o‘rinlarda – Dastur**).

Ishtirokchi – belgilangan tartibda IT-Park rezidenti sifatida ro‘yxatdan o‘tgan va Dasturga kiritilgan yuridik shaxs.

BPO (biznes jarayonlari outsorsingi) – dasturiy ta‘minot va IP-telefoniyadan foydalangan holda buyurtmachining biznes jarayonini boshqarish va optimallashtirish uchun mas‘uliyatni o‘z zimmasiga oladigan xizmat.

Veb-portal – Dasturda ishtirok etish uchun hujjatlarni qabul qilish uchun yaratilgan IT-Park veb-sayti.

Ekspert guruhi – Dasturda ishtirok etish uchun ariza bergan Ishtirokchilarning arizalarini ko‘rib chiqish, shuningdek, ushbu dastur shartlariga rioya etilishini nazorat qilish uchun Direksiya huzurida tashkil etilgan organ.

Xarajatlarni qoplash – Ishtirokchilarning uchinchi shaxslardan xodimlarni tanlash bo‘yicha xizmatlarini sotib olish, Ishtirokchi xodimlari uchun kirish va o‘quv treninglarini o‘tkazish natijasida amalga oshirilgan xarajatlarni qoplash, shuningdek xodimlarning ish haqining bir qismini qoplash bilan bog‘liq harakatlar.

Xizmatlar eksporti – eksport qiluvchi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi norezidentiga, xizmat ko‘rsatilgan joyidan qat‘i nazar, IT va BPO sohasida xizmatlarni ko‘rsatish.

Nizom – Direksiya tomonidan tasdiqlangan “Zero Risk” dasturida ishtirok etish tartibini belgilaydigan hujjat.

2-bob. Shartnoma predmeti

2.1. Ushbu Shartnoma doirasida Ishtirokchi belgilangan majburiyatlarni amalga oshiradi hamda Dastur doirasida nazarda tutilgan imtiyozlardan bir yil davomida foydalanadi, o‘z navbatida, Direksiya Ishtirokchiga Dastur doirasida belgilangan imtiyozlarni taqdim etilishi yuzasidan tashkiliy, moliyaviy va iqtisodiy chora-tadbirlarnilarni amalga oshiradi.

3-bob. Ishtirokchining huquqlari

3.1. Ishtirokchi quyidagi huquqlarga ega:

3.1.1. O‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasining Toshkent shahridan tashqari barcha hududlarida tashkil etish;

3.1.2. IT-Park rezidentining faoliyati shartlari to‘g‘risidagi shartnomada belgilangan barcha huquqlardan foydalanish;

3.1.3. IT-Park rezidentlari amalga oshirishi mumkin bo‘lgan faoliyat turlari doirasida o‘z faoliyatining asosiy yo‘nalishlarini mustaqil ravishda belgilash;

3.1.4. IT-Park rezidentlari uchun belgilangan soliq imtiyozlaridan va “Zero Risk” dasturi doirasida belgilangan quyidagi imtiyozlardan foydalanish:

Direksiyasining tavsiyasiga asosan bo‘sh turgan davlat ko‘chmas mulk obyektlari, shuningdek, Raqamli texnologiyalar vazirligi tizimidagi tashkilotlarning hamda Direksiya filiallarining davlat mulki hisoblangan bo‘sh turgan binolari va bino qismlaridan (to‘rttadan ko‘p bo‘lmagan miqdorda) bir yilgacha muddatga tekin foydalanish;

Direksiya tomonidan xarid qilingan yangi kompyuter, boshqa texnika va jihozlarda, kelgusida uch oy muddatda foizsiz bo‘lib-bo‘lib qiymatini to‘lash (sotib olish) sharti bilan, bir yilgacha muddatga tekin foydalanish;

bir yil ichida mehnat faoliyati bilan shug‘ullanuvchi xodimlar soniga mutanosib ravishda, ularga to‘langan ish haqi xarajatlarining 15 foizgacha bo‘lgan miqdori uchun kompensatsiya olish;

bir yil davomida inson resurslarini rivojlantirish bilan bog‘liq xarajatlar uchun belgilangan miqdorlarda kompensatsiyalar olish;

3.1.5. “Zero Risk” dasturi ishtirokchisi maqomidan ihtiyoriy ravishda voz kechish;

3.1.6. Dastur bo‘yicha imtiyozlar va preferensiyalardan, yangi muddatga uzaytirish huquqisiz, bir martalik foydalanish;

3.1.7. O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan boshqa huquqlardan foydalanish.

4-bob. Ishtirokchining majburiyatlari

4.1. Ishtirokchi quyidagi majburiyatlarga ega:

4.1.2. IT-Park rezidentining faoliyati shartlari to'g'risidagi shartnomada belgilangan majburiyatlarga amal qilishi;

4.1.3. umumiy xizmatlar hajmida xizmatlar eksporti ulushini mahalliy bozor uchun ko'rsatilgan xizmatlar hajmiga nisbatan yuqori bo'lishini ta'minlash;

4.1.4. amalda 500 ming AQSh dollari va undan yuqori bo'lgan ekvivalentdagi eksport shartnomalarga ega bo'lish va ular bo'yicha xizmatlar ko'rsatish;

4.1.5. Direksiya tomonidan tasdiqlangan shaklga ko'ra o'z faoliyati to'g'risida, jumladan, statistik va soliq hisoboti nusxalarini Direksiyaning maxsus veb-portali orqali taqdim etish;

4.1.6. Direksiyaga O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 29-moddasiga muvofiq o'zining soliq hisobotlari nusxalarini soliq organlaridan olish huquqini berish;

4.1.7. Dastur doirasida taqdim etilgan imtiyoz va preferensiyalar doirasida Ishtirokchining harajatlarini qoplab berish maqsadida amalga oshirilgan to'lovlardan yuzaga keladigan soliqlarni amaldagi qonunchilikka muvofiq to'lash;

4.1.8. Ishtirokchi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan boshqa majburiyatlarga ega bo'lishi mumkin.

5-bob. Direksiyaning huquqlari

5.1. Direksiya quyidagi huquqlarga ega:

5.1.1. Ishtirokchidan uning faoliyati to'g'risidagi ma'lumotni, shu jumladan statistika va soliq hisobotlarining nusxalarini olish;

5.1.2. Ushbu Shartnomaning amal qilish muddati davomida Ishtirokchi tomonidan imtiyozlarni qo'llash va ushbu Shartnoma shartlarini bajarish bo'yicha Ishtirokchi tomonidan amalga oshirilayotgan faoliyatni tahlil qilish;

5.1.3. Ishtirokchining yangi mahsulotlarini tashqi bozorlarda targ'ib qilishni tashkil etish;

5.1.4. Soliq organlaridan Ishtirokchining soliq hisobotlarini olish;

5.1.5. O'z vakolati doirasida alohida tuzilgan shartnomalar asosida Ishtirokchiga qo'shimcha xizmatlar ko'rsatish;

5.1.6. Ishtirokchi tomonidan "Zero Risk" dasturi shartlari buzilganligi holatlari aniqlangan taqdirda mazkur shartnomani bir tomonlama bekor qilish;

5.2. Direksiya O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

6-bob. Direksiyaning majburiyatlari

6.1. Ushbu Shartnoma tuzilgandan keyin Direksiya quyidagi majburiyatlarni bajarishni o'z zimmasiga oladi:

6.1.1. “Zero Risk” dasturi ishtirokchisi sifatida ro‘yxatga olinganligi to‘g‘risida Ishtirokchiga maxsus guvohnoma taqdim etish;

6.1.2. Ishtirokchiga davlat mulki obyektlaridan bir yilgacha tekin foydalanish huquqini beruvchi tavsiyanomalar berish;

6.1.3. tekin foydalanish shartnomalari asosida Direksiya filiallarining davlat mulki hisoblangan bo‘sh turgan binolari va bino qismlarini (to‘rttadan ko‘p bo‘lmagan miqdorda), shuningdek, yangi kompyuter, boshqa texnika va jihozlarni bir yilgacha muddatga tekin foydalanishga taqdim etish;

6.1.4. Ekspert guruhining xulosasi asosida Ishtirokchining inson resurslarini rivojlantirish yo‘nalishida bir yil davomida xarajatlarini, shuningdek, Ishtirokchining xodimlariga to‘lanadigan oylik ish haqi xarajatlari bir yil ichida mehnat faoliyati bilan shug‘ullanuvchi xodimlari soniga mutanosib ravishda 15 foizgacha miqdorda qoplab berish;

7-bob. Ishtirokchining imtiyozlari va preferensiyalari

7.1. Ishtirokchiga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mamlakatimizda raqamlashtirish sohasidagi xizmatlar eksportini rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2024-yil 26-fevraldagi PQ–87-son qaroriga muvofiq quyidagi imtiyoz va preferensiyalar taqdim etiladi:

7.1.1. Direksiyaning tavsiyasiga asosan bo‘sh turgan davlat ko‘chmas mulk obyektlari, shuningdek, Raqamli texnologiyalar vazirligi tizimidagi tashkilotlarning hamda Direksiya filiallarining davlat mulki hisoblangan bo‘sh turgan binolari va bino qismlari tekin foydalanish huquqi asosida bir yilgacha muddatga beriladi.

Bunda, Direksiyaning tavsiyanomasi Dasturda ishtirok etish uchun ariza bergan Ishtirokchilarning arizalarini ko‘rib chiqish natijalari bo‘yicha qabul qilingan Ekspert guruhining xulosasi asosida tayyorlanadi.

7.1.2. Direksiya tomonidan xarid qilingan yangi kompyuter, boshqa texnika va jihozlar bir yilgacha muddatga tekin foydalanish huquqi asosida, kelgusida uch oy muddatda foizsiz bo‘lib-bo‘lib qiymatini to‘lash (sotib olish) sharti bilan topshiriladi.

7.1.3. Ish haqi xarajatlari bir yil ichida mehnat faoliyati bilan shug‘ullanuvchi xodimlar soniga mutanosib ravishda 15 foizgacha miqdorda qoplanadi.

Dastur Ishtirokchisining shtatdagi xodimlari sonidan kelib chiqib, ish haqi xarajatlari quyidagi miqdorda qoplanadi:

20 dan 50 tagacha xodimlar soniga – 5 foiz;

50 dan 75 gacha xodimlar soniga – 10 foiz;

75 yoki undan ortiq xodimlar soniga – 15 foiz.

7.1.4. Bir yil davomida inson resurslarini rivojlantirish bilan bog‘liq xarajatlar qoplanadi, xususan:

ishlab chiqarish va boshqaruv xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish (shu jumladan chet ellik mutaxassislarni jalb qilgan holda) bilan bog‘liq

bo'lgan xarajatlar - bunday xarajatlarning 50 foizigacha, lekin bazaviy hisoblash miqdorining 200 barobaridan ko'p bo'lmagan miqdorda;

ishga joylashish uchun malakali mutaxassislarni tanlash bo'yicha xizmatlar uchun (mutaxassislar soniga mutanosib ravishda) – bunday xarajatlarning 50 foizigacha, lekin bazaviy hisoblash miqdorining 20 barobaridan ko'p bo'lmagan miqdorda.

7.2. Bir turdagi imtiyoz yoki preferensiyadan foydalanish yoki undan voz kechish Ishtirokchining Dasturda nazarda tutilgan boshqa turdagi imtiyoz va preferensiyadan foydalanish huquqini istisno etmaydi.

7.3. Imtiyoz va preferensiyalar doirasida Ishtirokchining harajatlarini qoplab berish maqsadida amalga oshirilgan to'lovlardan yuzaga keladigan soliqlar Ishtirokchi tomonidan amaldagi qonunchilikka muvofiq to'lanadi.

7.4. Dastur bo'yicha imtiyozlar va preferensiyalar, yangi muddatga uzaytirish huquqsiz, bir martalik taqdim etiladi.

8-bob. Ishtirokchi maqomidan mahrum qilish asoslari

8.1. Quyidagilar “Zero Risk” dasturi ishtirokchisi maqomidan mahrum qilishning asoslari hisoblanadi:

8.1.2. Direksiya bilan tuzilgan IT-Park rezidentining faoliyat shartlari to'g'risidagi shartnoma talablari buzilganligi aniqlansa;

8.1.3. IT va BPO sohasida eksport xizmatlarini ko'rsatishdan olingan daromadlar hisobot choragi yakunlari bo'yicha umumiy daromadning 51 foizidan oshmasa;

8.1.4. Ishtirokchining haqiqiy faoliyati bilan IT-Park rezidentlari tomonidan amalga oshirilishiga ruxsat etilgan faoliyat turlari ro'yxatida ko'rsatilgan faoliyat turlari o'rtasidagi nomuvofiqlik aniqlanganda;

8.1.5. Ishtirokchi nochor (bankrot) deb tan olinganda;

8.1.6. Ishtirokchi IT-Park rezidenti yoki “Zero Risk” dasturi ishtirokchisi maqomidan ixtiyoriy ravishda voz kechganda;

8.1.7. o'z faoliyati, soliq va statistik hisobotlar, biznes-reja to'g'risidagi ma'lumotlarni, shuningdek, auditorlik hisoboti va auditorlik xulosasini belgilangan muddatlarda taqdim etmaslik yoxud ularda noto'g'ri ma'lumotlar taqdim etilganda;

8.1.8. IT-Park rezidentining faoliyat shartlari to'g'risidagi shartnomada belgilangan oylik ajratmalarni to'lamaslik;

8.1.9. yuridik shaxsni qayta tashkil etish (shaklini o'zgartirish bundan mustasno) yoki tugatish holatlarida;

8.1.10. davlat boshqaruv organlari, soliq va bojxona organlari tomonidan Ishtirokchi/IT-Park rezidentining soliq va bojxona imtiyozlarini qo'llash yoki qonunga xilof ravishda qo'llash yo'l qo'yilgan huquqbuzarliklar aniqlanganda;

8.1.11. Ishtirokchi IT-Park rezidenti maqomi bekor qilinganda;

8.1.12. Ishtirokchi tomonidan ushbu Shartnomada belgilangan shartlar

buzilishi;

8.1.13 O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi, Nizomda, Direksiyaning qarorlarida va ushbu Shartnomada nazarda tutilgan boshqa asoslar.

9-bob. Tomonlarning javobgarligi

9.1. “Zero Risk” dasturi ishtirokchisi maqomi bekor qilinganidan keyin taqdim etilgan imtiyozlardan qonunchilikka xilof ravishda foydalanganlik, jumladan tekin foydalanish uchun berilgan mulklarni qaytarmaslik natijasida yuzaga kelgan oqibatlar uchun javobgarlikni, Ishtirokchi maqomini yo‘qotishiga sabab bo‘lgan asoslardan qat’iy nazar, mazkur yuridik shaxs o‘z zimmasiga oladi.

9.5. Jarima sanksiyalarini to‘lash aybdor tomonni ushbu Shartnoma bo‘yicha majburiyatlarni bajarishdan ozod qilmaydi.

9.6. Ushbu Shartnoma shartlarini bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun, Tomonlar O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq javobgar bo‘ladilar.

10-bob. Nizolarni hal qilish tartibi

10.1. Ushbu Shartnomani bajarish bo‘yicha kelib chiqadigan barcha tortishuvlar va kelishmovchiliklar tomonlar o‘rtasida muzokaralar yo‘li bilan hal qilinadi.

10.2. Agar kelishuvga erishilmasa, ish ko‘rib chiqish uchun Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudiga yuboriladi.

10.3. Sudda da’vo ochishdan avval da’vo qiluvchi tomon ikkinchi tomonga shikoyat yo‘llashi shart. Shikoyatni ko‘rib chiqish muddati 15 kun qilib belgilanadi.

11-bob. Fors-major

11.1. O‘z majburiyatlarini to‘liq yoki qisman bajarmaganligi uchun, agar bajarmaslik, sel toshqinlari, yong‘inlar, zilzilalar, harbiy harakatlar, davlat organlari tomonidan taqiqlovchi dalolatnomalarni chiqarish va shu kabi bartaraf etib bo‘lmaydigan kuchlar oqibatida yuzaga kelgan bo‘lsa, tomonlarning hech biri javobgar hisoblanmaydi.

11.2. Tomonlar ushbu Shartnoma bo‘yicha majburiyatlarni bajarishga to‘sqinlik qiladigan, fors-major holatlari haqida ular yuzaga kelgan va tugagan kundan boshlab o‘n kun ichida birbirlarini xabardor qilishga majburdirlar. Bunday holatda tomonlardan hech biri zararni qoplashni talab qilishga haqli emas.

11.3. Fors-major holatlari kelib chiqqanini ma’lum qiluvchi tomon ularni tasdiqlash uchun vakolatli davlat organining hujjatini taqdim etishi shart.

12-bob. Shartnomaning amal qilish muddati va uni bekor qilish shartlari

12.1. Ushbu Shartnoma O‘zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksining 367- moddasiga muvofiq ommaviy oferta hisoblanadi. Nizomning III bo‘limiga muvofiq Dastur ishtirokchisi maqomini olish uchun veb-portal orqali ariza taqdim etish, ushbu Shartnoma shartlari bilan roziligi (aksept) hisoblanadi.

12.2 Ushbu Shartnoma Ishtirokchi tomonidan aksept qilingan paytdan boshlab kuchga kiradi va **1 yil davomida amal qiladi.**

12.3. Ishtirokchi qayta tashkil etilganida, uning huquqiy holati qayta tashkil etilgan yuridik shaxsga davlat ro'yxatidan o'tkazilgan kundan boshlab, barcha huquqlari va ilgari qabul qilingan majburiyatlari saqlanib qolgan holda o'tadi.

12.4. Mazkur Shartnoma, Direksiya tomonidan ushbu Shartnomaning 8-bobida nazarda tutilgan asoslarga ko'ra bir tomonlama bekor qilinishga haqli.

Bunda, Shartnomaning 8-bobida nazarda tutilgan asoslar aniqlangan taqdirda, Ekspert guruhi mazkur asoslarni ko'rib chiqish natijalariga ko'ra, Dastur ishtirokchisi maqomini bekor qilish haqida Direksiyaga hulosasi taqdim etadi.

12.5. Direksiya Ekspert guruhi hulosasi asosida Ishtirokchiga Dastur ishtirokchisi maqomini bekor qilinganligi haqida habarnoma yuboradi va ushbu habarnoma Ishtirokchiga etib borgan sanadan boshlab mazkur Shartnoma bir tomonlama bekor qilingan hisoblanadi.

12.6. Mazkur Shartnomaning 12.4. bandida qayd etilganlardan tashqari hollarda, tomonlar Shartnomani qonunchilikda belgilangan umumiy shartlar asosida bekor qilishga haqli.

13-bob. Yakuniy shartlar

13.1. Ushbu Shartnomada nazarda tutilmagan holatlarda tomonlar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga amal qiladilar.

13.2. Ishtirokchi tomonidan ushbu Shartnomaning aksepti uning Nizom talablari bilan tanishganligini anglatadi.

13.3. Tomonlar ushbu Shartnomani bajarish bilan bog'liq har qanday ma'lumotlarni mahfiy deb biladi va uni boshqa tomonning yozma rozilgisiz uchinchi tomonlarga bermaslik majburiyatini o'z zimmasiga oladi.

13.4. Maxfiy ma'lumotlarni, shu jumladan tomonlarning tijorat sirlarini oshkor qilganlik uchun javobgarlik O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi bilan belgilanadi.

Direksiyaning bank rekvizitlari va manzili:

“Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari parki direksiyasi” MChJ

Manzil: Toshkent sh., M.Ulug'bek tumani, Tepamasjid 4

Bank: AT “Alokabank” Bosh maliyot bo'limi

x/r: 2020 8000 0009 6604 8001

MFO: 00401 STIR: 305975326

IFUT: 63990 Tel: +99871 209-11-99

**“Zero Risk” dasturida ishtirok etish
to'g'risidagi Nizomga
4-ILOVA**

Arizalarni ko‘rib chiqish sxemasi

Bosqichlar	Taraflar	Tadbirlar	Ijro muddati
1	Arizachi (IT-Park rezidenti)	Zero Risk” dasturi ishtirokchilarining faoliyati shartlari to‘g‘risidagi shartnoma (oferta) shartlari bilan tanishish va veb-portal orqali tegishli hujjatlarni ilova qilgan holda ariza kiritish	Zaruratga ko‘ra
2	Ekspert guruhi kotibi	<p>1. Dasturda ishtirok etish uchun arizalarni qabul qilish, Nizom shartlariga muvofiq hujjatlarni rasmiylashtirishda tegishli ilovalar, xatolar va nomuvofiqliklar mavjudligi yuzasidan arizalarni Ekspert guruhiga kiritishdan oldin ko‘rib chiqish;</p> <p>2. Xatolar va nomuvofiqliklar yoki belgilangan hujjatlar ilova qilinmaganligi aniqlangan taqdirda arizani qaytarish va bekor qilish;</p> <p>3. Ariza va ilova qilingan hujjatlarda xato va nomuvofiqliklar aniqlanmagan taqdirda arizani Ekspert guruhi a‘zolariga ko‘rib chiqish uchun taqdim etish.</p>	Bir ish kuni maboynda
3	Ekspert guruhi	Dasturda ishtirok etish uchun taqdim etilgan arizalarni ko‘rib chiqadi va tegishli xulosani IT-Park direksiyasiga taqdim etadi.	15 ish kuni davomida
4	IT-Park direksiyasi	Ekspert guruhi xulosasi hamda IT -Park direksiyasi tegishli buyrug‘i asosida Dastur ishtirokchisi maqomi berilganligi yoki ariza rad etilganligi haqida Ishtirokchiga xabarnoma yuboradi.	Bir ish kuni davomida

5	IT-Park direksiyasi	<p>Ishtirokchi kiritgan arizadan kelib chiqqan holda, IT-Park tegishli buyrug'i hamda tekin foydalanish shartnomasi asosida hisobidagi obyektlarni, yangi kompyuter, boshqa texnika va jihozlarni taqdim etadi.</p> <p>Davlat mulki obyektlari bo'yicha ushbu obyektlar egalariga Ishtirokchi maqomi berilganligi to'g'risida Tavsiyanomaning tasdiqlangan nushasini taqdim etadi.</p>	Ishtirokchi arizasini olgan muddatdan bir oy davomida
7	Ishtirokchi	Nizom shartlariga muvofiq 12 oy davomida amalga oshirilgan xarajatlarni qoplab berish bo'yicha ariza taqdim etadi.	Zaruratga ko'ra, Dastur ishtirokchisi maqomi berilgan sanadan 12 oy o'tgandan so'ng
8	Ekspert guruhi	Nizom shartlariga muvofiq 12 oy davomida amalga oshirilgan xarajatlarni qoplab berish yoki arizani rad etish to'g'risida xulosa qabul qiladi.	Ishtirokchi arizasi taqdim etilgan sanadan 15 ish kuni davomida
9	IT-Park direksiyasi	Nizom shartlariga muvofiq 12 oy davomida amalga oshirilgan xarajatlarni qoplab berish yoki arizani rad etish to'g'risida Ekspert guruhi xulosasi asosida Ishtirokchining elektron manziliga xabarnoma yuboradi.	Bir ish kuni davomida
10	IT-Park direksiyasi	Ekspert guruhi tegishli xulosasi va IT-Park direksiyasi buyrug'i asosida Ishtirokchining harajatlarini qoplab berish yuzasidan to'lovlarni amalga oshiradi.	5 ish kuni davomida